

**MANAGEMENT AND ECONOMICS
SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL**

**MENEJMENT VA IQTISODIYOT
ILMIY-TADQIQOT JURNALI**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ
ЖУРНАЛ МЕНЕДЖМЕНТА И ЭКОНОМИКИ**





MANAGEMENT AND ECONOMICS SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL

☎ +998 95 651 90 00

✉ journals@timeedu.uz

📍 Shota Rustaveli ko'chasi, 114

🌐 tmijournals.ndc-agency.uz

✈ @TMII_ilmiy_bolim

Bosh muharrir:

Narbayev Sharafatdin Kengeshovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi

Muharrir:

Qarshiyeva Shahnoza Davlatovna

Tahrir hay'ati:

1. Sharipov Kongratbay Avezimbetovich – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri, texnika fanlari doktori, professor.
2. Axmedov Xojiakbarxon Dilshatovich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti rektori, iqtisod fanlari nomzodi (PhD ekvivalenti), dotsent.
3. G'ulomov Saidahrur Saidaxmedovich – O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, iqtisod fanlari doktori, professor.
4. Mamatov Narzullo Solidjonovich – "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti professori, texnika fanlari doktori.
5. Sultonov Mansur Qilichovich – Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi "Inno" innovatsion o'quv-ishlab chiqarish texnoparki bosh direktori, texnika fanlari doktori, dotsent.
6. Muxamediyeva Dildora Kabilovna - Toshkent axborot texnologiyalari universiteti professori, texnika fanlari doktori
7. Chertovitskiy Aleksandr Stepanovich – Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti professori, iqtisod fanlari doktori.
8. Popkova Yelena Gennadyevna – Rossiya Federatsiyasi "Ilmiy aloqalar instituti" prezidenti, iqtisod fanlari doktori, professor.
9. Doktor Go Khang Wen – Malayziyaning INTI xalqaro universiteti prorektori, PhD.
10. Wang Cheng – Xitoy Xalq Respublikasidagi "Xebey mexanika va elektrotexnika texnologiyalari instituti" dotsenti, fan nomzodi.
11. Yo'ldoshev Nuritdin Qurbonovich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti professori, iqtisod fanlari doktori.
12. Akramov Tohir Abdiraxmonovich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti professori, iqtisod fanlari doktori.
13. Temirov Abdulaziz Alimjonovich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.
14. Rajabov Nazirdjon Razzakovich – Alfraganus universiteti Xalqaro ilmiy jurnallar va reytinglar kafedrasini mudiri, iqtisod fanlari nomzodi.
15. Xotamov Ibodullo Sa'dulloyevich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti professori, iqtisod fanlari nomzodi.
16. Kadirova Istora Bobirovna – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Karyera markazi direktori, falsafa fanlari doktori.
17. To'raqulov Otabek Xolmizrayevich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrasini mudiri, texnika fanlari falsafa doktori.
18. G'iyosidinov Boburbek Baxtiyorovich – Toshkent davlat transport universiteti dotsenti vazifasini bajaruvchi, falsafa fanlari doktori.

MUNDARIJA

Yo'ldoshev N.Q.	Boshqaruv qarorlarini texnik-iqtisodiy asoslash zarurligi	4
Anarkulova G. M.	Iqtisodiy yo'nalishda mutaxassislar tayyorlash jarayonida o'yinli texnologiyalardan foydalanish metodikasi	10
Kazakov A.N., Khakberdiev M.R., Khamitov N.A., Turgunov Sh.Sh.,	Study of stress-strain state of rocks	20
Abdulloyev A.J., Qosimova H.J.	Mintaqaviy sanoatlashuv jarayonlarini xalqaro standartlarga moslashtirish imkoniyatlari	28
Tursunova M.R.	O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotning jadallashuvi jarayonida olib borilayotgan islohotlar <i>yyt 338</i>	41
Zoirov S.Z.	Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish istiqbollari	50
Sodiqov M.A.	Ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi va ularni pasaytirish usullari	58
Raximqoriyeva N.A.	Motivating employees' work in enterprises	71
Navruz-zoda L.B.	Kichik biznesda innovatsion rivojlanish: xorijiy tajriba asosida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlari	89
Baxanurov O.O.	Iqtisodiyot va siyosat o'zaro ta'sirida mintaqaviy biznes istisnolari: siyosiy-iqtisodiy tahlil	95
Qodirov S.Q.	Globalizatsiya sharoitida marketing va menejment uyg'unligi: xalqaro tajriba va o'zbekiston uchun saboqlar	104
Xotamov I.S.	Sanoat korxonalarida "yashil" texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantirish mexanizmlari	107
Gofurov D.B.	Bank-moliya tizimida raqamli transformatsiya: imkoniyatlar va xavflar	122
Жўраев И.И.	Тижорат банклари ресурс салоҳиятини оширишда депозит сиёсатининг роли	134
Абдураимова Н.Р.	Реструктуризация в сфере обеспечения занятости в Республике Узбекистан: анализ институциональ-ных изменений и их влияние на рынок труда	147
Фарходова Ш.Ш.	Сокращение неравенства доходов и бедности в Узбекистане	163
Ахмаджонов А.К.	Халқаро аудит стандартларига мувофиқ аудиторлик текширувларини яқунлаш методологиясини такомиллаштириш	168

ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARINING TARKIBI VA ULARNI PASAYTIRISH USULLARI

Sodiqov Miraxror Abbos o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi

E-mail: sodiqovmiraxror440@gmail.com

ORCID: 0009-0001-0132-1354

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar faoliyati va ularda xarajatlarni boshqarish masalalari tahlil qilingan. Korxonalarning bozor talablariga moslashishi, xarajatlarni optimallashtirish va tannarxni pasaytirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish yo'llari yoritilgan. Shuningdek, ishlab chiqarish xarajatlariga ta'sir etuvchi omillar, ularni minimallashtirish strategiyalari hamda xorijiy tajribalar misolida samarali boshqaruv mexanizmlari ko'rsatib berilgan. Maqolada milliy korxonalar uchun xarajatlarni kamaytirish orqali samaradorlikka erishishning ilmiy-nazariy asoslari va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, korxona samaradorligi, ishlab chiqarish xarajatlari, tannarx, raqobatbardoshlik, xarajatlarni minimallashtirish, moliyaviy barqarorlik, resurslardan samarali foydalanish, boshqaruv strategiyasi.

Abstract. This article analyzes the activities of enterprises in the context of the digital economy and the issues of cost management within them. The study highlights ways to increase competitiveness by adapting enterprises to market demands, optimizing costs, and reducing production expenses. It also examines the factors influencing production costs, strategies for their minimization, and effective management mechanisms based on international experience. The article develops scientific-theoretical foundations and practical recommendations for achieving efficiency in national enterprises by reducing costs.

Keywords: digital economy, enterprise efficiency, production costs, cost price, competitiveness, cost minimization, financial stability, efficient use of resources, management strategy.

Аннотация. В данной статье анализируется деятельность предприятий в условиях цифровой экономики и вопросы управления затратами. Рассмотрены пути повышения конкурентоспособности за счет адаптации предприятий к рыночным требованиям, оптимизации расходов и снижения себестоимости продукции. Также исследованы факторы, влияющие на производственные затраты, стратегии их минимизации и эффективные механизмы управления на основе зарубежного опыта. В статье разработаны научно-теоретические основы и практические предложения по повышению эффективности национальных предприятий за счет сокращения издержек.

Ключевые слова: цифровая экономика, эффективность предприятия, производственные затраты, себестоимость, конкурентоспособность, минимизация расходов, финансовая устойчивость, эффективное использование ресурсов, стратегия управления.

Korxona raqamli iqtisodiyotda yurituvchi subyektdir. Bu xo'jalik faoliyat yurituvchi mustaqil xo'jalik munosabatlari tizimida uning

yo'nalishini obyektiv ravishda murakkablashtirishga va natijada korxonani boshqarish funksiyalarining ahamiyatini oshirishga olib keladi. Raqamli iqtisodiyot munosabati bilan korxonalarni boshqarish faoliyatining vazifalari va xarakteri tubdan o'zgarib bormoqda.

Qisqa muddatda foydani maksimal darajada oshirish, uzoq muddatda korxonalarning bozor qiymatini egalari manfaatlaridan kelib chiqib oshirish maqsadi birinchi o'ringa chiqadi. Korxonaning bozor sharoitlariga moslashishi ham bajariladigan funksiyalarni o'zgartirishni, ham ichki tashkiliy qayta qurishni, birinchi navbatda, tashkiliy tuzilmani yangi bo'g'inlar bilan to'ldirishni, huquqlar, vakolatlar va majburiyatlarni taqsimlashning butun tizimini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

Ishlab chiqarish faoliyatida xarajatlar korxonaning asosiy moliyaviy ko'rsatkichi hisoblanadi. Ular mahsulotni tayyorlash, qayta ishlash va bozorga chiqarish jarayonida sarflanadigan barcha moddiy va mehnat resurslarini o'z ichiga oladi. Ishlab chiqarish xarajatlari to'g'ri boshqarilmasa, mahsulotning tannarxi ortib ketadi va bu uning raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bozorga moslashish maqsadida korxonalarni isloh qilish strategik rejalashtirish, bozor narxlarini, potensial bozor sig'imi va to'yinganligini o'rganish,

raqobatchilarni, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, sotish va ta'minot tizimlarining samaradorligini tahlil qilish kabi boshqaruv faoliyati turlariga o'tishdan boshlanadi.

Korxona faoliyati samaradorligi ko'p jihatdan tannarxning shakllanishi haqidagi ma'lumotlarga bog'liq: mahsulot tannarxi sotish narxini belgilash uchun asosdir; xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlar prognozlash va ishlab chiqarishni boshqarishning markazidir. Xorijiy korxonalar tajribasi shuni ko'rsatadiki, boshqaruv amaliyoti har kuni ularni kamaytirishga qaratilgan xarajatlar bilan ishlashga asoslanadi, bu esa bozor pozitsiyalarining barqarorligini ta'minlaydi.

O'zbekistonda jadal iqtisodiy islohotlar sharoitida korxonalarning moliyaviy barqarorligi va to'lovga qobilligini oshirish ularning harajatlarini boshqarish amaliyotini takomillashtirishni taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash"[14] dolzarb vazifalar ekanligi belgilab berildi.

A.V. Klochkovaning fikriga ko'ra "Ishlab chiqarish sohasida korxonaning kuchli va zaif tomonlari xarajatlarni kamaytirish va mahsulotning kerakli sifatini ta'minlash omillari orqali aniqlanadi." [15]

Zamonaviy sharoitda xarajatlarni boshqarish muammosi ko'pchilik milliy korxonalar uchun dolzarbdir. Mahsulot tannarxining yuqoriligi uning raqobatbardoshligini pasaytiradi va rahbariyatni xarajatlarni kamaytirish uchun sabablar va zahiralarni izlashga majbur qiladi. Korxonada xarajatlarni rejalashtirish, nazorat qilish va tahlil qilishning samarali mexanizmi mavjud emas. Ayrim turdagi mahsulotlarning tannarxi va ularning bozordagi o'rnini to'g'risida boshqa korxonalar mahsulotlariga nisbatan yuqori sifatli va real ma'lumotlarning yo'qligi boshqaruv samaradorligini pasaytiradi. Xarajatlarni samarali boshqarish korxona va uning tarkibiy bo'linmalari faoliyatining shaffofligi va samaradorligini oshirishning samarali vositasi bo'lib, muammoni hal qilishda kompleks va tizimli yondashuv asosida, ya'ni xarajatlarni yagona boshqarish tizimi asosidagina bo'lishi mumkin.

"Xarajatlarni baholash — bu menejerning kompaniyada aniq turdagi faoliyatlar qanday samarali amalga oshirilayotganini aniqlash, firmaning xarajatlari raqobatchilarning xarajatlari bilan bir xil darajada bo'lishini tekshirish va qanday ichki faoliyatlar yaxshilashni talab qilishini belgilashdagi asosiy vosita hisoblanadi. Bu, shuningdek, qaysi kompaniya aniq faoliyatlarni eng yaxshi darajada bajarayotganini aniqlashga yordam beradi va keyinchalik ularning texnologiyasini o'zlashtirish yoki, aniqrog'i, ularning texnologiyasidan foydalanib, turli operatsiyalarni

bajarishni yaxshilashga imkon beradi." [16]

Ishlab chiqarish xarajatlari har bir korxona va ishlab chiqarish jarayonining muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, har bir tashkilot o'z mahsulotlarini ishlab chiqarishda muayyan xarajatlarni tashkil etadi. Bu xarajatlar va ularning optimizatsiyasi, ya'ni kamaytirish, kompaniyaning iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish uchun muhimdir.

Ishlab chiqarish xarajatlari kompaniyaning umumiy xarajatlarining bir qismi bo'lib, ular mahsulotning narxiga va bozordagi mavqeini saqlashga ta'sir qiladi. Shunday qilib, ishlab chiqarish xarajatlarini to'g'ri tarkibda aniqlash va ularni kamaytirish usullarini ishlab chiqish, tashkilotning rivojlanishi va qo'lga kiritgan bozor ulushini saqlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Sh.Shodmonov tomonidan quyidagicha ta'rif keltirilgan: "Ishlab chiqarish xarajatlari — korxonaning mahsulot ishlab chiqarish maqsadlarida, iqtisodiy resurslar sotib olish uchun qilgan pul sarflari. Firma o'z faoliyatini bozordan moddiy resurslar, ya'ni asbob-uskuna, dastgohlar, transport va aloqa vositalari, xom-ashyo, yoqilg'i, har xil materiallarni, mehnat bozoridan ishchi kuchini sotib olishdan boshlaydi. Shunga muvofiq holda ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga xom-ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yonilg'i va energiya xarajatlari, asosiy kapital

amortizatsiyasi, ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, foiz to'lovlari va boshqa xarajatlar kiradi. Ishlab chiqarish xarajatlariga qilingan barcha xarajatlarning puldagi ifodasi mahsulot tannarxini tashkil qiladi".[17]

Iqtisodiyotni globallasuvi sharoitida moliyaviy faoliyat zamonaviy kompaniyalar asosiy faoliyatiga aylanmoqda. Xalqaro standartlarga muvofiq bunday xarajatlarga moliyaviy aktivlarning chiqib ketishidan zararlar, moliyaviy aktivlarning qadrsizlanishidan zararlar, moliyaviy aktivlarni qayta tasniflash zararlari va boshqa moliyaviy xarajatlarni kiritish mumkin.

Korxonaning odatdagi faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlari – bu korxonaning odatdagi faoliyati jarayonida yuz berishi yoki yuz bermasligi mumkin bo'lgan xarajatdir.

Bularga tabiiy ofat tufayli yuzaga kelgan xarajatlar, joriy bo'lmagan aktivlarni tasarruf qilishdan zararlar, valyuta kursi bo'yicha zararlarni kiritish mumkin.

Korxonaning odatdagi faoliyati bilan bog'liq xarajatlar – bu korxonaning odatdagi faoliyati jarayonida yuz bergan operasion, moliyaviy va innovasion ilmiy-tadqiqotlar faoliyatlari natijasida yuzaga kelgan xarajatlardir. Operasion faoliyat xarajatlarga sotilgan mahsulotlarning tannarxi, sotish xarajatlari, ma'muriy boshqaruv va boshqa operasion xarajatlar kiradi.

Odatdagi faoliyat bilan bog'liq xarajatlar tarkibida operasion xarajatlar salmoqli hissani tashkil etadi. Operasion xarajatlarni ikki guruhga ajratish mumkin (1.2-rasm):



1.2-rasm. Operatsion xarajatlar turlari[18]

AQSHdagi buxgalteriya hisobi bo'yicha lug'atda "ishlab chiqarish xarajatlari – bu material xarajatlari plyus ushbu materiallarni tayyor mahsulotga aylantirish bilan bog'liq xarajatlarga aytiladi. Barcha ishlab chiqarish xarajatlari tayyor mahsulot

tannarxiga shunday olib borilishi talab etiladiki, bunda kompaniyaning tashqi moliyaviy hisoboti GAAP talablariga muvofiq kelsin."[19] - deb ta'rif berilgan. Ushbu manbada ishlab chiqarish xarajatlari uchta kategoriyaga ajratilgan: to'g'ridan-to'g'ri material

(Direct materials), to'g'ridan-to'g'ri mehnat (Direct labor) va ustama ishlab chiqarish (Manufacturing overhead).

Ishlab chiqarish xarajatlari – bu mahsulot (ish, xizmatlar)ni ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish zaxiralari hamda ularni qayta ishlash uchun sarflanadigan bevosita mehnat va ustama ishlab chiqarish xarajatlari bo'lib, ushbu xarajatlarning oqilona qo'shilishi natijasida tayyor mahsulot tannarxi yuzaga keladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini tannarx obyektlarga olib borish usuliga qarab: bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) va bilvosita (to'g'ridan-to'g'ri bo'lmagan) ishlab chiqarish xarajatlarga bo'linadi.

Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) xarajatlar – bu aniq tannarx obyektiga iqtisodiy mohiyatiga ko'ra to'g'ridan-to'g'ri olib borish mumkin bo'lgan xarajatlardir. Masalan, avtomobil ishlab chiqarishda avtomashinaning kuzovi, matori va boshqa ehtiyot qismlari, hamda shu turdagi avtomobilni ishlab chiqarish bilan mashg'ul bo'lgan ishlab chiqarish ishchilarining mehnat haqi xarajatlari bevosita xarajatlardir. Ushbu xarajatlarni qaysi avtomobilni ishlab chiqarishda sarflanganligiga qarab to'g'ridan-to'g'ri mahsulot tannarxiga identifikatsiyalash mumkin.

Bilvosita xarajatlar (to'g'ridan-to'g'ri bo'lmagan) xarajatlar – bu aniq tannarx obyektiga iqtisodiy mohiyatiga ko'ra to'g'ridan-to'g'ri olib borish mumkin bo'lmagan, dastavval jamg'ariladigan (akkumlyasiyalanadigan), so'ngra mahsulot tannarxiga ma'lum

asoslangan mezonlar asosida taqsimlanadigan xarajatlarga aytiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlari amalga oshirish natijasida mahsulot tannarxi shakllanadi. Demak, ishlab chiqarish xarajatlarining tayyor mahsulotlar qiymatida o'zining ifodasini topishi tayyor mahsulot tannarxi ko'rinishida amalga oshadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, bozor iqtisodiyoti sharoitida faqat ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish emas, balki ishlab chiqarishni me'yorlash, rejalashtirish va hisobga olish milliy iqtisodiyot tomonidan amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish xarajatlari korxona tomonidan ko'rsatilgan iqtisodiy natijalarga murakkab va noaniq ta'sir ko'rsatadi. Sug'urta jarayonlari natijalarini oshirish uchun kompaniya sug'urta to'lovlari miqdorini kamaytirishi kerak, ammo bu faqat etkazilgan zararni qayta ishlash va qoplash xarajatlarining oshishi natijasida mumkin. Har bir korxona mahsulot ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq xarajatlarni amalga oshiradi. Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida sarf qilingan moddiy resurslar (asosiy vositalar eskirishi, xomashyo va materiallar, yonilg'i-moylash materiallari, ehtiyot qismlar va boshqalar) va jonli mehnat sarfi ishlab chiqarish xarajatlarini tashkil etadi.

Ishlab chiqarish korxonasi uchun amalda har bir mahsulot hajmi uchun resurslar kombinatsiyasini optimal

tanlash muammosi paydo bo'ladi. Maksimallashtiradigan korxona ekanligi aniq foyda, ularning ishlarida resurslarning eng arzon kombinatsiyasini yaratishga intiladi. Shuning uchun menejmentning vazifasi ma'lum bir mahsulot hajmi uchun korxona xarajatlarini minimallashtirishga qaratiladi.[20]

Bugungi kunda ishlab chikarish xarajatlarini minimallashtirib borish va unga ta'sir etuvchi omillarni taxlil kilib berish juda muxim xisoblanmokda. Chunki ishlab chikarishning rivojlanib borishi va yuksalishi xarajatlarni kiskartirib borish, unga ta'sir etuvchi omillari taxlil qilish kabi xususiyatlar juda qiyindir. Chunki bu soxada dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari o'zlarining tarakkiyot darajasiga erishgandir.

Adabiyotda aytilishicha, "ma'lum bir mahsulot hajmini ishlab chikarishda omillarning barcha mumkin bo'lgan kombinatsiyalarini aniqlash uchun iqtisodiy nazariya egri chiziq bo'lgan izokvant tushunchasidan foydalanadi, har qanday nuqtada ikkita o'zgaruvchan omilning turli kombinatsiyalarini ko'rsatadi.[21]

Xarajatlarni minimallashtirish va sifat o'rtasida korxona foydasini maksimal darajada oshirishda, quyidagilardan iborat bo'lgan sezilarli farq mavjud: "har qanday mahsulot hajmi uchun omillarning optimal kombinatsiyasiga erishilganda, omillarning narxi va ularning marjinal mahsuldorligi hisobga olinadi. Maksimallashtirish shartlarini

shakllantirishda foyda, shuningdek, ushbu omillar yordamida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga bo'lgan talabni aks ettiruvchi, pul ko'rinishidagi omilning marjinal mahsuloti kabi qiymatni hisobga olishi kerak. Bu omillarga bo'lgan talabning hosilaviy xususiyati bilan bog'liq.[22]

Yuqoridagilarni hisobga olib ishlab chikarish xarajatlarini minimallashtirishda bir qancha omillar ta'sir ko'rsatgan. Ular quyidagilardir:

-mexnat unumdorligini oshib borishi;

-mexnatni ilmiy tashkil qilish;

-ishchi kuchlarini tugri joylashtirish va ishlab chikarishga tugri jalb etish;

-fan-texnika taraqqiyotini yuksaltirib borish, tadbiiq qilish;

-kadrlar malakasini oshirib borish;

-xom-ashyo resurslaridan samarali va unumli foydalanish;

-ishlab chikarishni boshqarishni tug'ri tashkil etish.

Umuman olganda esa bu omillarni quyidagicha birlashtirish mumkin: yangi fan-texnikani qo'llash mexnat unumdorligini oshirib borish, xom ashyo sarflarini qisqartirib borish. Xar qanday jamiyatning muhim bug'inlaridan asosiysi ishlab chikarish xarajatlarini minimallashtirishdan iboratdir. Shuning uchun har bir faoliyat ko'rsatayotgan korxona xam o'z oldiga ana shuni vazifani qo'yadi, ya'ni firmaning asosiy maqsadi, ishlab chikarish xarajatlarini minimallashtirib

maksimal foyda olishdir, ko'proq mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan.

Ishlab chiqarish xarajatlariga yuqorida sanab o'tilgan muhim omillar ta'sir etar ekan, bularning barchasini birgalikda amalga oshirish juda qiyin. Masalan: xom ashyo zaxiralarining eng arzon kanallarini qidirib topish va samarali ishlatishni ta'minlash, ishchilarni ijtimoiy muxofazalashni kuchaytirish, fan-texnika taraqqiyotini yuksaltirib, uni ishlab chiqarishga tadbiq qilish, umuman bularni birgalikda amalga oshirish murakkab jarayonidir. Shu omillarni barchasini birgalikda olib borilishi iqtisodiy samaradorlikka erishishning asosiy sharti xisoblanadi.

Respublikamizda bunday ishlarni rivojlantirish maqsadida ilgari davlat markazlashgan korxonalar tizimi o'zgartirilib, xususiylashtirish ishlari yo'lga qo'yildi. Bugungi kunda umumiy ishlab chiqarishning 84% asosan xususiy va qo'shma korxonalarga to'g'ri kelmoqda. Bu degan so'z xar bir korxona o'zining ishlab chiqarish jarayonlariga va xarajatlarni kamaytirib borish omillariga jiddiy e'tibor qaratadi deganidir. Albatta bunday munosabatlar ishlab chiqarishni pasayishini oldini olish, ishsizlikka yo'l qo'ymaslikni ta'minlaydi. Ishlab chiqarish va tadbirkorlikni rivojlantirib borish esa unga tamal toshi bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, ishlab chiqarish xarajatlariga asosan fan-texnika yutuqlari, yuqori malakali ishchi kuchi,

xom-ashyo resurslari asosiy ta'sir ko'rsatadi. Mehnatni ilmiy tashkil qilgan xolda ishlab chiqarishni yuksaltirib borish xam muhimdir. Xar bir ishchi o'zining kasbini, qilayotgan ishini sevishi kerak. Bu esa kadrlar malakasizligiga barxam beradi, natijada ishlab chiqarish yuksaladi. Ilmiy tadqiqotlardan ma'lumki, ishchilarning u ishdan bu ishga ko'chib yurishlari natijasida ish samaradorligi 30-40% foizgacha kamayadi. Bu degani ishlab chiqarishning asosiy qismi yo'qoldi deganidir. Shu sababli eng asosiy e'tibor ishchi o'rinlarini to'g'ri tashkil etishga qaratilishi zarur.

Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan ko'plab firmalar ishlab chiqarish xarajatlariga ta'sir qiluvchi omillarini xar tomonlama o'rganib, shu asosda ish yuritmoqdalar. Shuningdek yangi bozor tizimi amal qilishi iqtisodiyotda juda muhim sanalmokda va ahamiyati ortib bormoqda. Xar bir korxona o'z oldiga xarajatlarni pasaytirish, unga ta'sir etuvchi omillarni taxlil qilishni ustivor vazifa qilib qo'yishi kerak. Ana shundagina iqtisodiyot yuksaladi, ishlab chiqarish tarakkiy etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ishlab chiqarish xarajatlariga quyidagi omillar ta'sirini xam ko'rish mumkin. Chunki tahlil odatda bir birlik tovar mahsuloti uchun ketgan xarajatlarning ko'rsatkichlari bo'yicha o'tkaziladi. Bu ko'rsatkichga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- alohida mahsulotlar tannarxining o'zgarishi;

- alohida mahsulotlarga qo'yilgan narx-navoning o'zgarishi;

- tovar mahsulotining tarkibiy o'zgarishlari.

Xarajatlarni minimallashtirish xom ashyodan kompleks foydalanish, ular o'rniga tejimli xom-ashyolarni

tadbiq qilish va ishlab chiqarish chiqindilardan to'liq foydalanishni tashkil etishga bog'liq. Umuman mahsulot ishlab chiqarishdagi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish material va mehnat sig'imini kamaytirish bilan bog'liq.

1- jadval

Xarajatlar bo'yicha yetakchilik omillari tavsifi [23]

Xarakatlanuvchi kuchlar	Tavsifi
Ishlab chiqarishdagi miqyos tejamkorligi	1. Ishlab chiqarish o'rtasidagi texnik aloqalar, xarajatlar va ishlab chiqarish 2. Bo'linmaslik 3. Mutaxassislik
Treningda tejash	1. Individual malakalarni oshirish 2. Tashkiliy tartibni takomillashtirish
Ishlab chiqarish texnologiyalari	1. Innovation jarayonlar 2. Biznes jarayonlarining reinjiniringi
Mahsulot dizayni	1. Dizayn va butlovchi qismlarni standartlashtirish 2. Sanoat dizayni
Ishlab chiqarish xarajatlari	1. Joylashuv afzalligi 2. Arzon resurslarga egalik qilish 3. Bozor kuchi
Imkoniyatlardan foydalanish	1. Doimiy xarajatlarning o'zgaruvchilarga nisbati 2. Tez va moslashuvchan quvvatni tartibga solish
Qoldiq samaradorlik	1. Tashkiliy samarasizlik / X samarasizlik 2. Motivatsiya va tashkiliy madaniyat 3. Boshqaruv samaradorligi

1-jadvalda keltirilgan umumiy ko'rinishga muvofiq, shuni aytish kerakki, ishlab chiqarish xajmining katta miqyoslarida resurslar xajmining ko'payishi tannarxning pasayishiga olib keladi.

An'anaga ko'ra, ko'lamli iqtisodlar ishlab chiqarish bilan bog'liq. Shuni ta'kidlash kerakki, yagona eng muhim belgilovchi miqyosdagi iqtisodlar sanoat to'planishi darajasining tarkibiy qismi bo'lib, yirik

kompaniyalar uchun bu asosiy omil bo'ladi. Kichik va o'rta kompaniyalar, birinchidan, korxonaning kichikligi bilan bog'liq bo'lgan moslashuvchanlik, ikkinchidan, korxonalarning keng ko'lamli ishlab chiqarish tufayli kelib chiqadigan motivatsiya va muvofiqlashtirish muammolari tufayli bo'lishi mumkin.[24]

Treningda tejash kabi harakatlantiruvchi kuch - agar mashg'ulot individual bo'lsa malaka

oshirish yuqori natija beradi. Ko'pincha sanoatdagi yuqori mavqening natijasi kadrlar tayyorlash ko'lamini hisoblanadi. Ishlab chiqarish texnologiyalarining ta'sirini ochib, shuni ta'kidlash lozimki, bu holda iqtisodiy samaradorlik to'g'ridan-to'g'ri ishlatilgan narxlarga bog'liq resurslar, yangi texnologiyalar xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirishi mumkin.

Imkoniyatlardan foydalanish talab nuqtai nazaridan baholanishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, muhim nuqta, talab va ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qilish asosida bozor talabining pasayishiga moslashishdir.

Bizning fikrimizcha, asosiy e'tiborni qoldiq samaradorlikka qaratish muhim, ya'ni, qanday xarajalar kompaniyaning maksimal operatsion samaradorlikka erishishiga to'sqinlik qiladi. Ushbu qo'shimcha xarajatlarni aniqlash uchun qiymat zanjiri tahlilini o'tkazish kerak, uning asosida kompaniyadagi xarajatlarni minimallashtirish strategiyasini qurish kerak.

Ayni chog'da ishlab chiqarish xarajatlarini muvofiqlashtirish hisobiga barcha korxonalariga maqbul investisiya muhitini yaratish va boshqa muhim yechilmagan muammolarning mavjudligi dolzarbligini belgilab beradi.

Xarajatlarni minimallashtirish foydasi xo'jalikni rasional yuritishda muhim ahamiyatga egadir va mavjud resurslarda maksimal mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydi.

Ilmiy-texnik yuksalish jamoa ishlab chiqarish samaradorligining o'sishi, uning yuqori darajasini ta'minlashning muhim omili bo'lgan va shunday bo'ladi. Oxirgi vaqtlargacha ilmiy-texnik yuksalishi evolyusion tariqada borar edi. Korxonada ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni eng muhim yo'nalishlari:

-progressiv membran, lazer, plazma texnologiyalari: o'ta yuqori bosim bilan foydalanish hamda texnologiyalarni keng miqyosda o'zlashtirish;

-yangi ko'rinishli gilam mahsulotlarini va boshqa ilg'or konstruktiv materiallarini yaratish.

Ilmiy-texnikaga mansub tadbirlar raqamli iqtisodiyotda, ayniqsa uning boshlang'ich davrida juda muhimdir. Shuning uchun firmalarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun xarajatlarni kamaytirish hamda firmaning mehnat unumdorligini oshirish kerakdir. Shuningdek, firma jamoasi uning rahbariyati mehnatini moddiy rag'batlantirishga asosiy e'tiborni qaratadi.

Zero, ishlab chiqaruvchi firmalar ishlab chiqarish xarajatlarini ko'paytirib, to'lanadigan soliqni kamroq to'lashga xarakat qiladi. Soliqlarni to'lab bo'lgandan so'ng, foydaning ko'p qismini iste'mol fondiga yo'naltiriladi.

Bozor munosabati rivojlangan sari korxonalar ishlab chiqarishning kelajak rivojiga salmog'li e'tibor ajrata boshlaydilar va yangi texnikaga, ishlab chiqarishni yangilashga, yangi

mahsulotni o'zlashtirish va chiqarishga zarur vositalarni yo'naltiradilar.

Iqtisodiy tejash ishlab chiqarishni intesivlashtirish va samaradorligini ko'tarishning muhim omillaridan biridir. Resurslarni avaylash yoqilg'iga, energiyaga, xomashyo va materiallarga o'sayotgan ehtiyojni qondirishning hal qiluvchi manbaiga aylanishi kerak.

Ishlab chiqarishni intensivlashtirish, uning samaradorligini ko'tarish omillardan biri-iqtisodiyot tuzilmasini takomillashtirishdir. Ilmiy-texnik yuksalish va ijtimoiy masalalarni muvofaqiyatli hal etuvchi tarmoqlarni yuqori sur'atda rivojlantirish zarur, tarmoqlarda ishlab chiqarish vositalarini va iste'mol buyumlarini ishlab chiqarish orasidagi mutanosiblikni yaxshilanishiga erishish kerak.[25]

Mahsulotlar (xizmatlar) ishlab chiqarish xarajatlari tahlili shuni ko'rsatdiki, korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotlar ancha mehnat talab qiladi, moddiy va energiya sarfi esa past. Tahlil xarajatlarni kamaytirish uchun quyidagi zaxiralarni aniqladi:

1. Moddiy xarajatlarni kamaytirish uchun zaxiralar:

- xarid narxlarini nazorat qilish, narxlarni iqtisodiy ekspertizadan o'tkazish;

- xom ashyo va materiallar yetkazib beruvchilardan keladigan sifat nazoratidan keng foydalanish;

- mavjud materiallarni iste'mol qilish normalarini qayta ko'rib chiqish;

- mos mahsulotlarning hosildorlik foizini oshirish.

2. Mehnat xarajatlarini kamaytirish uchun zaxiralar:

- ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish;

- ilg'or, yuqori unumdor texnologiyalardan foydalanish, bu boradagi an'anaviy yo'nalish – progressiv kam chiqindili texnologiyalar va chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish;

- eskirgan uskunalarni almashtirish va modernizatsiya qilish;

- ish joyini tayyorlash, uni to'liq yuklash;

- mehnatning ilg'or usullari va usullarini qo'llash;

- mos mahsulotlarning hosildorlik foizini oshirish.

3. Korxonaning ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liqroq foydalanish.

Shuni ta'kidlash kerakki, korxonaning ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish moddiy va mehnat xarajatlarini tejashga olib keladi (materiallar sarfini, ularning yo'qotilishini, qayta ishlash vaqtini qisqartirish).

4. Yarim doimiy xarajatlarni kamaytirish uchun zaxiralar:

- noto'g'ri boshqarish va haddan tashqari ko'p yo'qotishlarni bartaraf etish;

- Umumiy ishlab chiqarish, umumiy xo'jalik va tijorat xarajatlari smetalarining bajarilishini qat'iy nazorat qilish.

Aniqlangan zaxiralardan foydalanish, ularda mavjud materiallar sarfi me'yorlarini qayta ko'rib chiqish, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, yaxshi mahsulot hosildorlik foizini oshirish, umumiy ishlab chiqarish, umumiy xo'jalik va tijorat xarajatlari smetalarining bajarilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish, tashkiliy-texnik va ishlab chiqarish xarajatlari, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish. mahsulot tannarxini yanada pasaytirish, sifatini yaxshilash va korxona samaradorligini oshirish uchun zaxiralarni safarbar etishga qaratilgan texnik chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Ma'lumki, mahsulotni o'zini o'zgartirmasdan turib, uning tannarxini kamaytirish ko'p hollarda qiyin kechadi. Birinchidan, ayrim hollarda mahsulotning texnologik xususiyatlariga ko'ra unga aniq nisbatlarda va aniq me'yorlarda xom-ashyo sarflanadi. Me'yordan kam sarflansa, mahsulot sifati pasayadi. Huddi shunday mehnat sarfi ham ishlab chiqarish texnologiyasi kabi belgilanadi. Demak, bunday hollarda xom-ashyodan unumli foydalanish isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik masalasi muhim hisoblanadi. Elektr energiyasi va gaz sarflarini ma'lum darajada qisqartirish mumkin, lekin ularning tannarxdagi ulushi juda kam bo'lganligi sababli bu tannarxni sezilarli kamayishiga olib kelmaydi.

Korxonada amortizatsiya xarajatlarini mahsulot tannarxidagi

ulushini kamaytirish yo'li, korxonani ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanish hisoblanadi. Korxona to'liq quvvatda ishlayotgan bo'lsa, mahsulot tannarxidagi uning ulushini qisqartirib bo'lmaydi.

Ma'muriy va sotish xarajatlarini kamaytirish mahsulot tannarxi bilan bog'liq emas, bu korxona foydasiga ta'sir qiladi, xolos.

Lekin korxonani barcha sohalarda tejamkorlik rejimini yaxshi yo'lga qo'yish orqali mahsulot tannarxini mumkin bo'lgan minimal darajada ushlab turish mumkin.

Xom-ashyo xarajatlarini kamaytirish yo'llari - bu arzonroq xom-ashyo manbaini topish, tashish xarajatlarini kamaytirish, ularni omborlarda yaxshi saqlash va optimal zahirani ta'minlashdir.

Korxona oldida turgan asosiy muammolardan biri, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobatbardoshligini oshirishdir. Bu yerda birinchidan, mahsulot tannarxini kamaytirish asosiy strategik masalalardan biri hisoblanadi.

Mahsulot tannarxini kamaytirishning yana bir yo'li, bu ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni hech bo'lmaganda 90% ga yetkazish. Bu ishni amalga oshirish marketing xizmatini kuchaytirishni talab etadi. Shunday qilib, korxona mahsulot raqobatbardoshligini oshirishga olib keladigan mahsulot tannarxini kamaytirishning quyidagi yo'llarini ko'rsatish mumkin:

mahsulot pishiqligini oshirish orqali ularning og'irligini kamaytirish va shu asosda har birlik tayyor mahsulotga sarflanadigan xom-ashyo sarfini kamaytirish. Buning uchun yangi zamonaviy texnologiya va fan yutuqlaridan foydalanish;

ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni hech bo'lmasa 90% ga yetkazish vash u bilan birga marketing xizmatini kuchaytirish;

arzon va sifatli xom-ashyo manbalarini qidirib topish;

elektr-energiyasi, yoqilg'i energiyalarini tejashni moddiy rag'batlantirish;

har bir ish joyida iqtisod qilish rejimini joriy qilish;

ISO - 9001 va uning guruhlarida asosida sifatni boshqarish tizimini ishlab chiqarishga joriy etish.

Xarajatlarni minimallashtirish strategiyasini qo'llaganda korxonalar mahsulot narxini kamaytirish evaziga ushbu turdagi mahsulot bozorining katta ulushini egallashi mumkin. Ushbu strategiyani amalga oshiruvchi firma yaxshi tashkil qilingan ishlab chiqarish tizimiga, yaxshi ta'minot tizimiga, zamonaviy texnologiyaga va muhandislik-konstruktorlik bazasiga

hamda mahsulot taqsimlashning yaxshi tizimiga ega bo'lishi kerak. Qo'shimcha qilib aytish mumkinki, minimal xarajatlarga erishish uchun mahsulot tannarxi bilan bog'liq bo'lgan barcha sohalar chuqur tahlil qilinishi kerak bo'ladi. Bundan tashqari, ma'muriy va sotish xarajatlarini ham o'rganib chiqishi va ularni kamaytirish yo'llarini qidirishi muhimdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan ko'plab firmalar ishlab chiqarish xarajatlariga ta'sir qiluvchi omillarini har tomonlama o'rganib, shu asosda ish yuritmoqdalar. Umuman olganda, ishlab chiqarishni yangi uslubda tashkil etish, hamda zamonaviy texnologiya bilan jihozlash va yangidan qidirib ularga intilib yashash zamon talabidir. Shuningdek yangi bozor tizimi isloxotlarini amal qilishi iqtisodiyotida juda muhim sanalmoqda va ahamiyati ortib bormoqda. Xar bir korxona o'z oldiga xarajatlarni pasaytirish, unga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilishni ustuvor vazifa qilib qo'yish kerak. Ana shundagina iqtisodiyot yuksaladi, ishlab chiqarish taraqqiy etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. 01.02.2022
2. Klochkova A.V. Strategicheskiy menedjment: Ucheb.-metod. posobiye - SPb.: Universitet ITMO; IXiBT, 2015. 25 s
3. Tompsos A.A., Striklend A. Dj. T56 Strategicheskiy menedjment. Iskustvo razrabotki i realizatsii strategii: Uchebnik dlya vuzov/ Per. s angl. pod red. L.G. Zayseva, M.I. Sokolovoy. — M: Banki i birji, YUNITI, 1998. -164 s.
4. Kunsman M.V. Ekonomicheskaya teoriya. Kurs leksiy. – Moskovskiy avtomobilno-dorozhnyy institut (MADI), 2015 g. 69 s.

5. Kurs ekonomicheskoy teorii: uchebnik 7-ye izd., dopoln. i pererab. Kirov: «ASA», 2012 g. 248 s.
6. Sovremennyy strategicheskiy analiz. 7-ye izd. SPb.: Piter, 2016 g. 254 s.
7. Sovremennyy strategicheskiy analiz. 7-ye izd. SPb.: Piter, 2016 g. 255 s.
8. Sokolov N.A., Kubyshev A.V. Ekonomicheskaya teoriya: uchebnoye posobiye. – Bryansk: Izd-vo Bryanskiy GAU, 2015 g. 124 s.
9. Krayuxin G.A. Upravleniye zatratami na predpriyatii: SPb.: «Izdatelskiy dom «Biznes pressa», 2007. - 117 s.
10. Toshnazarova D. S. «Xarajatlar va tannarx tushunchasi, ularning mazmuni va tavsifi»
11. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021 yil 36-b.
12. What are manufacturing costs? <https://www.accountingcoach.com/blog/what-are-manufacturing-costs>
13. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/ishlab-chiqarish-xarajatlari-uz/>
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. 01.02.2022
15. Klochkova A.V. Strategicheskiy menedjment: Ucheb.-metod. posobiye – SPb.: Universitet ITMO; IXiBT, 2015. 25 s
16. Tompsos A.A., Striklend A. Dj. T56 Strategicheskiy menedjment. Iskustvo razrabotki i realizatsii strategii: Uchebnik dlya vuzov/ Per. s angl. pod red. L.G. Zayseva, M.I. Sokolovoy. — M: Banki i birji, YUNITI, 1998. -164 s
17. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/ishlab-chiqarish-xarajatlari-uz/>
18. Toshnazarova D. S. «Xarajatlar va tannarx tushunchasi, ularning mazmuni va tavsifi» “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021 yil 36-b.
19. What are manufacturing costs? <https://www.accountingcoach.com/blog/what-are-manufacturing-costs>
20. Kunsman M.V. Ekonomicheskaya teoriya. Kurs leksiy. – Moskovskiy avtomobilno-dorojnyy institut (MADI), 2015 g. 69 s
21. Kurs ekonomicheskoy teorii: uchebnik 7-ye izd., dopoln. i pererab. Kirov: «ASA», 2012 g. 248 s.
22. Sovremennyy strategicheskiy analiz. 7-ye izd. SPb.: Piter, 2016 g. 254 s.
23. Sovremennyy strategicheskiy analiz. 7-ye izd. SPb.: Piter, 2016 g. 255 s.
24. Sokolov N.A., Kubyshev A.V. Ekonomicheskaya teoriya: uchebnoye posobiye. – Bryansk: Izd-vo Bryanskiy GAU, 2015 g. 124 s.
25. Krayuxin G.A. Upravleniye zatratami na predpriyatii: SPb.: «Izdatelskiy dom «Biznes pressa», 2007. - 117 s.

Ingliz tili muharriri: Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi
Musahhih: Vaxabova Marfua Mirkamalovna
Sahifalovchi va dizayner: Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li

2025. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda, **"Management and Economics Scientific Research Journal"** jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pulli asosda chop etiladi.

El. pochta: journals@timeedu.uz

Tel.: +998 95 651 90 00

"Management and Economics Scientific Research Journal" jurnali 19.09.2024-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami:

C-5669639

PNFL: 308906510

Manzilimiz: Toshkent shahar Yakkasaroy tumani
Shota Rustaveli ko'chasi, 114